

XALQ OĖZAKI IJODINING TURLARI VA ULARNING AHAMIYATI

Xudoynazarova Sh.I.

*Qarshi davlat universiteti.Xorijiy tillar fakulteti,Tarjima
nazaryasi va amaliyoti yōnalishi 2-kurs talabasi*

+998881185554

xudoynazarovashahzoda884@gmail.com

Anotatsiya:Ushbu maqolada xalq og‘zaki ijodining mohiyati, uning vujudga kelishi hamda asosiy janrlari — maqol, matal, ertak, doston, topishmoq va qo‘shiqlarning o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan.Shuningdek,maqola xalq og‘zaki ijodining adabiyot va jamiyat hayotidagi ahamiyatini ochib berishga qaratilgan.

Kalit sōzlar: xalq og‘zaki ijodi, maqol, ertak, doston, topishmoq, milliy qadriyat, oĖzaki ijodning mohiyati.

This article examines the essence of folk oral literature, its origin, and its main genres, including proverbs, sayings, fairy tales, epics, riddles, and folk songs. The role of folk oral creativity in preserving national values and transmitting them from generation to generation is highlighted. The study aims to reveal the significance of folk oral literature in literary and social life.

Keywords: folk oral literature, proverbs, fairy tales, epics, riddles, national values

Kirish

Xalq og‘zaki ijodi — xalq ommasining badiiy, ijodiy-amaliy va havaskorlik faoliyati, an‘anaviy moddiy va nomoddiy madaniyatning xalq og‘zaki badiiy ijodi xalq musiqasi,xalq teatri tomosha san‘ati,xalq o‘yinlari qo‘g‘irchoqbozlik, dor va yog‘och oyoq o‘yinlari xalq tasviriy va amaliy bezak san‘ati hamda texnikaviy va badiiy havaskorlik kabi ijodiyot turlari. Yaratilishi va ijodiy jarayonida ko‘pchilikning ishtiroki bo‘lgan Xalq ijodi ning turlari xalq turmush tarzi, yashash sharoitlari, ijtimoiy mehnat darajasiga moye ravishda shakllanib, avloddanavlodga, ustozdan shogirdga o‘tib, doimiy ravishda mukammallashib, sayqallashib, tobora an‘anaviylashib borgan va nihoyat, kasbiylik xususiyatiga ega bo‘lgan, jonli ijro sharoitlari va kundalik amaliyotda bizgacha yetib kelgan. Shuningdek, Xalq ijodining bir qator qadimiy namunalari yozma manbalarda, tarixchi va yozuvchilarning asarlarida, qoyatoshlarda arxeologiya va arxitektura yodgorliklarida, uyro‘zg‘or buyumlarida saqlanib kelgan.

Xalq ijodi namunalarida xalqning turmush tarzi, ijtimoiy va maishiy hayoti, mehnat faoliyati, tabiat va jamiyatga qarashlari, e‘tiqodi va diniy tasavvurlari, inson va olamga

nisbatan histuyg‘ulari, badiiy olami, bilim darajasi, baxtli va adolatli zamon haqidagi o‘yfikrlari o‘z ifodasini topgan. Xalq ijodi qadimdan rivojlanib kelgan. Jamiyat taraqqiyoti va mehnat taqsimotining kuchaya borishi bilan Xalq ijodi janrlariga nisbatan ayrim iste’dodli shaxslarning ixtisoslashuvi osha borgan. Shu tariqa baxshilar, masxarabozlar, qiziqchilar, qo‘g‘irchoqbozlar, raqqoslar, mashshoklar, naqqoshlar, kulollar, o‘ymakorlar, kashtado‘zlar va hokazo san’ati yuzaga kelgan, korfarmon va ishboshilar paydo bo‘lgan. Ammo uning yaratilishi va o‘zlashtirilishida ko‘pchilikning ishtiroki, har bir ijro yoki amaliyot qadimdan qaror topgan mustahkam an’analar doirasida voqe bo‘lishi saqlanib kelgan. Har qanday ijodiy xatti-harakat, yangilik barqaror an’analar va ustoz shogird munosabatlari doirasida ro‘y bergan. Bir tomondan, an’analarning o‘zi rivojlana borgan, ikkinchi tomondan, har bir ijro yoki amaliyot davomida o‘zgartirishlar, yangiliklar kiritilgan, yangi asarlar, variantlar yuzaga kelgan. Qay birlari unutilib, ijro va amaliyotdan tushib qolgan. Xalq ijodi professional san’atning yuzaga kelishi va rivojida katta o‘rin tutadi. O‘z navbatida, professional san’at ham xalq ijodi rivojiga ta’sir ko‘rsatib, uni boyitib kelmoqda. Jamiyatda Xalq ijodi namunalarini saqlash va rivojlantirish, yo‘qolganlarini tiklash ehtiyoji o‘zining estetik talablarini qondirish, yaxshi yashash va hayotini mukammallashtirishga bo‘lgan intilishidan kelib chiqqan. Bugungi kunda Xalq ijodini saqlash va rivojlantirish uchun katta imkoniyat va sharoitlar yaratilgan. Umumdavlat miqyosidagi muzeylar va qo‘riqxonalarning ishlayotganligi, Xalq ijodi namunalarining ilmiy o‘rganilishi va nashr etilayotganligi, ko‘plab folkloretnografik ansamblarning mavjudligi, badiiy havaskorlikni yuksaltirishga qaratilgan tadbirlarning amalga oshirilayotganligi buning tasdig‘idir.

Asosiy qism

Xalq og‘zaki ijodining janrlari quyidagilar:

1. Maqol — xalq og‘zaki ijodi janri; qisqa va lo‘nda, obrazli va obrazsiz, grammatik va mantiqiy tugallangan ma’noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli. Muayyan aniq shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg‘ulari, ijobiy fazilatlarini mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan.

Maqollar mavzu jihatdan nihoyatda boy va xilma-xil. Vatan, mehnat, ilm-hunar, do‘stlik, ahillik, donolik, hushyorlik, til va nutq madaniyati, sevgi va muhabbat kabi mavzularda, shuningdek, salbiy hislatlar xususida rangbarang maqollar yaratilgan. Maqol uchun mazmun va shaklning dialektik birligi, ko‘p hollarda qofiyadoshlik, ba’zan ko‘p ma’nolilik, majoziy ma’nolarga boylik kabi xususiyatlar harakterli. Maqollarda antiteza hodisasi ko‘p uchraydi.

"Kattaga hurmatda bo‘l, kichikka izzatda bo‘l" va boshqalar

Turkiy xalqlarning maqollaridan namunalar dastlab maqol Koshg‘ariyning "Devonu lug‘otit turk" asarida keltirilgan. Bu maqollarning bir qanchasi hozir ham o‘zbek xalqi orasida turli variantlarda ishlatiladi. Maqollar ba‘zan matal, zarbulmasal, naql, hikmat, hikmatli so‘z, tanbeh, mashoyixlar so‘zi, hikmatli maqol, donishmandlar so‘zi, otalar so‘zi kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Maqollarning ijtimoiy-siyosiy va tarbiyaviy ahamiyati juda, xattoki, g‘oyat katta. Matalda narsa tasviri, uning harakteristikasi beriladi, maqolda esa to‘la tugallangan fikr-xulosa ifodalanadi. Negaki, So‘z ko‘rki - maqol

Masalan: "Oltin olma, duo ol"

Mazmuni esa, bu maqol xalq og‘zaki ijodiga xos nasihat va axloqiy g‘oyani ifodalaydi. Uning mazmuni shuki:

Moddiy boylikdan ko‘ra ma‘naviy boylik ustun.

Odamlarga yaxshilik qilish, saxovatli bo‘lish natijasida olinadigan duo — eng katta mukofot.

Duo oltindan ham qimmat, chunki u baraka, baxt va omonlik keltiradi.

Yaxshi amal qilgan inson jamiyatda hurmat topadi va savobga erishadi.

Matal — muayyan hayotiy hodisani aniq va to‘g‘ri belgilab beradigan obrazli ifoda, ibora. Matalda o‘xshatish, taqqoslash, kinoya, qochiriq so‘z kabi badiiy vositalardan foydalaniladi. Majoziy iboraning o‘z asl ma‘nosi bilan ko‘chma ma‘nosi o‘rtasida yaqinlik, mantiqiy bog‘lanish bo‘lishi lozim. M. bir yoki bir necha jumladan tuziladi, ular orasida qofiyalanish hamisha ham saqlanmaydi. Mas, "Shamol bo‘lmasa, daraxtning shoxi qimirlamas", "Qizim senga aytaman, kelinim sen eshit" va boshqa misollar. Matal muayyan hayotiy hodisani aniq va to‘g‘ri belgilab beradigan obrazli ifoda, ibora: maqollardan farqli ravishda ibratli maslahat tariqasidagi umumlashtiruvchi ma‘nodan holi bo‘ladi.

Topishmoq – bu narsaning nima ekanligini bilishni tinglovchi yoki o‘quvchining ixtiyoriga qoldiradigan o‘yin bo‘lib, uning xususiyatlarini ismini tilga olmay, bilvosita aytib beradi [1] Topishmoqlardagi savollar; U kontseptsyani tavsiflovchi darajada bo‘rttirish, teskari o‘zgartirish va o‘zgartirish orqali yaratilgan Bu ibora " so‘roq gap " bo‘lishi shart emas. Topishmoqlar bir necha so‘zdan tashkil topgan gap shaklida ham, juftlik yoki bayt shaklida ham bo‘lishi mumkin. Ko‘p topishmoqlar qofiyada holda keladi. Topishmoq (yoki pazl/zagadka) janri – bu biror narsaning nomini aytmadan, uning xususiyatlarini tasvirlab, tinglovchi yoki o‘quvchidan uning nima ekanligini topishni talab qiladigan, ko‘pincha qofiyali va obrazli tilda yozilgan og‘zaki xalq ijodiyoti namunasi, o‘yin-kulgi janridir. U tushunish va topishga asoslanadi, odatda qisqa gap, juftlik yoki bayt shaklida bo‘lib, metaforalar va o‘xshatishlar orqali fikrni bilvosita ifodalaydi.

Asosiy xususiyatlari:

Bilvosita ta’rif: Narsaning o‘zini emas, balki uning belgilari, harakatlari, sifatlarini sanab o‘tadi.

Qofiya va obrazlilik: Ko‘pincha qofiyali bo‘lib, obrazli til (metafora, personifikatsiya) ishlatiladi.

O‘yin-kulgi: Tinglovchining mantiqiy fikrlashini va bilimni sinovdan o‘tkazishga xizmat qiladi.

Shakli: Bir necha so‘zdan iborat gap, ikki misrali juftlik, to‘rt misrali bayt ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.

Maqsadi: O‘yin orqali estetik zavq berish va aqliy qobiliyatni rivojlantirish.

Doston, — liro-epik janr; shu janrdagi badiiy asar. O‘zbek xalq, og‘zaki ijodi va o‘zbek mumtoz adabiyotida keng tarqalgan. Dostonda muayyan voqea liro-epik tasvir vositalari yordamida hikoya qilinadi. Unda hayot, voqelik keng ko‘lamda qamrab olinadi, bir yoki ikkita bosh qahramon ishtirok etadi, personajlar esa ko‘p bo‘ladi. Syujeti sertarmoq, rang-barang. Xalq og‘zaki ijodidagi Dostonlar nazm nasrda, yozma adabiyotdagi Dostonlar nazmda bo‘ladi, bunda nasr voqealarni bog‘lovchi vazifasini o‘taydi. Yozma adabiyotdagi Dostonlarda lirizm kuchliroq, ayniqsa, hozirgi zamon Dostonlarida lirik asos yanada salmoqliroqdir. Jahon mumtoz adabiyotidagi Dostonlar keng qamrovligi va hajmining kattaligi, ko‘tarib chiqqan ijtimoiy, siyosiy, axloqiy muammolari, syujetining sertarmokligi va dramatzmining o‘tkirligi, personajlarining ko‘pligi bilan ajraladi. Bunday asarlar markazida jamiyat va xalq takdiri turadi, jamiyat, xalq va qahramon yaxlit, bir butunlikda tasvirlanadi, ular o‘rtasida ziddiyat bo‘lmaydi, balki shu xalq, shu qahramon bilan tashqi dushmanlar o‘rtasidagi kurash, yaxshilik bilan yomonlik o‘rtasidagi ziddiyat tasvirlanadi. Ularda vatanparvarlik, qahramonlik, insonparvarlik, mehr-muhabbat, do‘stlik va sadoqat, mehnatsevarlik g‘oyalari ilgari suriladi. Ilk dostonlar Yunonistonda paydo bo‘ldi. Ularda afsonaviy qahramonlarning jasorati, xudolarning karomati haqida kuylangan. Gomerning "Iliada" va "Odissey", Dantening "Ilohiy komediya", Firdavsiyning "Shohnoma" asarlari. Misol uchun qahramonlik ("Alpomish", "Farhod va Shirin"), sarguzasht-detektiv ("Sabbai sayyor"), ishqiy-romantik ("Tohir va Zuhra"),

Ertak — xalq og‘zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri; to‘qima va uydirmaga asoslangan sehrli sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asar. Asosan, nasr shaklida yaratilgan. Ertak Surxondaryo, Samarqand, Farg‘ona o‘zbeklari orasida matal, Buxoro atrofidagi tuman va qishloqlarda ushuk, Xorazmda varsaqi, Toshkent shahri va uning atrofida cho‘pchak deb ataladi. Ertak hayot haqiqatining hayoliy va hayotiy uydirmalar asosida tasvirlanganligi, tilsim va sehr vositalariga asoslanishi, voqea va harakatlarning ajoyibg‘aroyib holatlarda kechishi, qahramonlarning g‘ayritabiiy jasorati bilan folklarning

boshqa janrlaridan farq qiladi. Ertaklarda uydirma muhim mezon bo‘lib, syujet voqealarining asosini tashkil etadi, syujet chizig‘idagi dinamik harakatning konflikt yechimini ta‘minlaydi. Uydirmalarning turli xil namunalari ta‘limiy estetik funksiyani bajaradi, janr komponenti sifatida o‘ziga xos badiiy tasvir vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Uydirmalar voqea va hodisalarni hayotda bo‘lishi mumkin bo‘lmagan yoki mavjud bo‘lgan hodisalar tarzida tasvirlaydi. Xayoliy va hayotiy uydirmalarning ishtiroki, syujet chizig‘ida tutgan o‘rni va vazifasiga ko‘ra, ertaklarni 2 guruhga — xayoliy uydirmalar asos bo‘lgan ertaklar, hayotiy uydirmalar asos bo‘lgan ertaklarga bo‘lish mumkin. Xayoliy uydirmalar asosidagi ertaklar syujeti mo‘jizali, sehrli; hayotiy uydirmalarga asoslangan ertaklar syujeti esa hayotiy tarzda bo‘lib, unda real voqea-hodisalar tasvirlanadi. Ertakda, asosan, uch maqsad hikoya qilinadi. Birinchisida ideal qahramonning jasorati, yovuz kuchlarga qarshi chiqib, xalq manfaatini himoya qilishi, ikkinchisida, asosan, bosh qahramonning o‘zga yurt malikalariga yoki parizodlariga oshiq bo‘lib uylanishi, kasalga dori topishi, ajdar va devlar olib qochgan kishilarni ozod qilishi, uchinchisida esa adolatsizlikka, zulmga qarshi chiqishi kabi maqsadlar bayon qilinadi. Birinchi maqsad pahlavonning faol harakati va g‘ayritabiiy kuchqudrati bilan amalga oshsa, ikkinchi maqsad passiv qahramonga yordam beruvchi tilsim vositalari yordamida, uchinchi maqsad esa bosh qahramonning aqlidroki, tadbirkorligi bilan amalga oshadi.

Maishiy ertaklarda ko‘proq zulm va adolatsizlik qoralanadi ("Uch og‘aini botirlar", "Oygul bilan Baxtiyor", "Tohir va Zuhra", "Farhod va Shirin", "Zolim podsho" va boshqalar). Masalan, "Uch og‘a-ini botirlar" ertagi odatdagidek ota nasihati bilan boshlanadi. Bunda ota kambag‘al, lekin hayot tajribalariga boy bo‘lgan shaxs, boshqa variantlarida esa shoh bo‘lib, o‘g‘illari shahzodalardir. Botirlar obrazida axloq va odobning yuksak namunasi, odamiylik, donishmandlik, jasurlik kabi sifatlar ko‘rinsa, shahzodalar qiyofasida molmulk to‘plash yo‘lida har qanday yomon niyatlardan qaytmaydigan yolg‘onchi, johil kishilar obrazi gavdalangan.

Milliy qo‘shiqlar-har bir joyning jug‘rofiy tuzilishi, iqlimiga, urf-odatlariga, o‘tkaziladigan marosimlariga monand tarzda o‘sha yurtning turli yoshdagi vakillari tomonidan yaratiladi va ijro etiladi. Xalq qo‘shiqlari juda qadimiy tarixga ega. Ular dastlab mehnat jarayonida paydo bo‘lgan. Qo‘shiqlarda xalqning orzu-umidlari, zavq-shavqi, quvonch va iztiroblari mujassamlashgan. Xalq qo‘shiqlarida ko‘pchilikning his-tuyg‘ulari umumlashtirilgan holda yakka shaxs kechinmalari orqali aks ettiriladi. Xalq qo‘shiqlari kundalik hayotni bezovchi ko‘ngil mulki deb ham aytiladi. Xalqlar o‘z quvonchini, shodligini va g‘am-hasratini aynan qo‘shiqlarda namoyon etgan lirik qo‘shiqlar, termalar, yillar davomida sayqallanib bizgacha yetib kelgan va hozir ham ijro etiladi. Xalq qo‘shiqlari ko‘p turlarga bo‘linadi, jumladan, mehnat qo‘shiqlar (ish jarayonini yengillashtiruvchi), marosim qo‘shiqlari (to‘y,

yor-yor, aza, marsiya, hazil-mutoyiba), lirik qo‘shiqlar (ishqiy, hayotiy), bolalar qo‘shiqlar va mavsumiy qo‘shiqlar (navro‘z, yoz, qishga oid) kabilar, ular xalqning hayoti va urf-odatlarini bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi.

1. Sevgi qo‘shiqlari – sevgi va muhabbatni ifodalaydi.

Layli va Majnun, Gulshan.

2. Mehnat qo‘shiqlari – ish paytida aytiladigan, mehnatni yengilroq qilishga yordam beradigan qo‘shiqlar.

Chorva qo‘shiqlari, Dalada ishlash qo‘shiqlari.

3. Bayram va tantana qo‘shiqlari – to‘y, Navro‘z, suv, hosil bayramlari uchun kuylanadi.

To‘y qo‘shiqlari, Navro‘z qo‘shiqlari.

4. Vatanparvarlik va qahramonlik qo‘shiqlari – tarixiy voqealar, qahramonlar va xalqning jasoratini madh etadi.

Alpomish qahramonlik qo‘shiqlari, Temur qo‘shiqlari

5. O‘yin va kulgi qo‘shiqlari – bolalar o‘yinlari, hazil va raqs bilan bog‘liq qo‘shiqlar.

Bolalar o‘yini qo‘shiqlari, Hazil qo‘shiqlari.

6. Tabiat va mavsum qo‘shiqlari – bahor, yoz, kuz, qish va tabiat manzaralarini tasvirlaydi.

Bahor qo‘shiqlari, Hosil qo‘shiqlari.

Xulosa

Xulosa qiladigan bōlsak, Xalq og‘zaki ijodi – xalqning dunyoqarashi, hayotiy tajribasi va hissiyotlarini avlodlar avlodga yetkazuvchi eng qadimiy va muhim madaniy merosdir. Maqolada ko‘rib chiqilgan maqol, matal, topshmoq, ertak, doston va qo‘shiqlar kabi turlar xalqning aql-zakovati, mehnatga, sevgiga va tabiatga munosabatini ifodalaydi. Shu bilan birga, ular milliy tafakkur va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Xalq og‘zaki ijodi o‘tmish va bugunimizni bog‘laydigan, kelajak avlodlar uchun esa boy madaniy meros bo‘lib qoladi. Adabiyotshunos olim M. Jo‘rayev ta’kidlaganidek,

“Xalq og‘zaki ijodi — millatning tarixiy xotirasi va ma’naviy boyligidir.”

Adabiyotlar

1. Brinchi jild. Toshkent, 2000-yil O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006 yil

M. Afzalov. Ertak janri. O‘zbek tili va adabiyoti masalalari, 1961 — 6-bet.

2. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

3. Jirmunskiy V. M., Zarifov X. T., Uzbekskiy narodniy geroicheskiy epos, M., 1947; Obido v T., Dorbozlar qissasi, T., 1963; Qodirov M., O‘zbek teatri an‘analari, T., 1976; Nozilov

D., Xalqme'morchiligi, T., 1982; Karomatov F., O'zbek xalq musiqa merosi, 1—2kitob, T., 197883; Urolov A., Nozilov A., To'raqulov Sh.

4.O'zbek xalq musiqa ijodi, T., 1994; Alpomish, T., 1999; Avdeyeva L., O'zbek milliy raqsi tarixidan, T., 2001; Ma'nolar maxzani, T., 2001; Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O., Uzbekxalqmaqollari, T., 2002; Karimova R., O'zbek raqslari, T., 2003. To'ra Mirzayev, Olimjon Bekov, O'tkir Tohirov, Po'lat Toshkanboyev.